

## "MEHNAT MUHOFAZASIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR QURISH"

**Ashirqulova Qurbonoy Normo'min qizi**

*Qarshi Davlat Texnika Universiteti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrası talabasi*

*Email: ashirqulovaqurbonoy@gmail.com.*

*Tel: 95 898 04 75*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mehnat muhofazasida texnika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qurish orqali kasb kasalliklarining oldini olish tahlil etiladi. Kasb kasalliklarining vujudga kelishi natijasida ishchi kuchi yetishmovchiligi vujudga kelmoqda. Buning oldini olish shu maqolada yoritib beriladi.

**Tayanch so'zlar:** Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, chora tadbirlar qurish, kasb kasalligi, ishchi kuchi.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalarda barcha islohotlarning asosiy maqsadi, fuqarolarning munosib hayot sharoitlarini yaratib berishga qaratilgan. Shubhasiz, munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyil inson mehnatini yengillashtirish bilan bir qatorda, turli xavfli faktorlarni vujudga keltiradi. Natijada har xil ko'rinishdagi baxtsiz hodisalarni vujudga keltiradi. Bunga misol qilib aytish mumkinki, jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari. Shu o'rinda aytish joizdirki, jarohatlanishlar va shikastlanishlar inson tanasiga zarar yetishidir. Bundan tashqari, kasb kasalliklari ham aytib o'tildi, albatta. Kasb kasalligi - bu ish joyidagi zararli omillar ta'siri ostida vujudga keladigan kasallik hisoblanadi. Bu zararli omillar quyidagilar bo'lishi mumkin, ya'ni kimyoviy moddalar, jismoniy omillar, ergonomik omillar, ruhiy bosim yoki stress. Lekin har bir inson bu porloq yurtda yashar ekan o'zining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirishni istaydi. Ishlab chiqarishda mehnatni tartibsiz, amaldagi qonun qoidalar, standartlar va ko'rsatmalarga amal qilmasdan oshirilishi yomon oqibatlarga olib kelishi ehtimollari mavjud. Ya'ni inson jarohatlanishi, shikastlanishi, balki ayrim hollarda o'lim holatlariga ham olib keladi. Shubhasiz, bu insonning o'z mehnat faoliyatidagi tabiiy texnik, antropogen, ekologik va boshqa turdagi barcha xavfli faktorlardan himoyalaniшни ilmiy asosda tashkil qilishni talab qiladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi kungacha ishda baxtsiz hodisa va umumiy kasalliklar soni ortib bormoqda. Shuni aytishim mumkinki, jahon sog'liqni saqlash tashkilotining eng ko'p

uchraydigan kasbiy xavf omillarini baholash bo'yicha o'tkazgan so'nggi tadqiqotlariga ko'ra, Yevropa davlatlarida kasallik yukining kamida 1,6foizi mehnat sharoitlari sabab yuzga kelishi aniqlangan. Unga ko'ra, xavflarning asosiy omillari sifatida :shikastlanish(40foiz), shovqin(22foiz), kanserogenlar(18foiz), xavfli zarralar va ergonomik omillar(3foiz ) keltirilgan. "Xalqaro Mehnat Tashkiloti"ning tomonidan e'lon qilingan raqamlarga asosan, har yili ishlab chiqarishda kuzatiladigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari tufayli yer yuzida 2 million (bu har kuni olti mingdan ziyod odam deganidir) odam halok bo'ladi. Shu bilan birga bu ko'rsatkichning o'sish sur'ati yildan yilga 10% ga oshib bormoqda. Bundan tashqari, 270 mln kishi ishlab chiqarishdagi jabrlanuvchilarga aylanishadi. MDH davlatlarida ish vaqtida 600 mingdan ziyod baxtsiz hodisalar qayd etiladi. XMT tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 4% nomaqbul mehnat sharoitlari va ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli yo'qotiladi.

Har qanday jamiyat uchun inson butun faoliyati davomida, qanaqa faoliyat bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, qadr-qimmatga ega bo'lishi lozim. Chunki, mamlakatlar o'z fuqarolarining sog'lig'iga va hayotiga nisbatan bo'lgan e'tibor har qanday jamiyat taraqqiyot darajasining asosiy o'lchov mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan dastlabki yillardan boshlab davlat bosh islohotchi tamoyili asosida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlarini belgilab oldi va bu yo'ldan og'ishmay bormoqda. Inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalisharidan bir bo'lib, insoniyat jamiyatni taraqqiy ettirish hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog'lig'ini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizning o'z ichki mehnat qonunchiligi ham XMTning meyorlarga muvofiq muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Buni Prezidentimiz rahbarligida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan mehnatni muhofaza qilishning meyoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada ishlab chiqish va amalga tatbiq etish borasidagi ishlar jadallik bilan olib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, davlatimiz tomonidan 2016 yilda "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni yangi tahririyati, 2023 yilda esa yangi „Mehnat kodeksi“ning kuchga kiritilishi jamiyat hayotida va mehnatni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yuqorida keltirilgan mehnat muhofazasi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar, standartlar, nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar barchasi korxonalarda xodimlar hayoti, sog'lig'i va ish qobiliyatini muhofazalash, turli baxtsiz hodisalar, jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish, qulay va bexatar mehnat sharoitlarini yaratish, xavfsiz mashina va mexanizmlar, qurilmalar, uskunalarni loyihalash, ishlab chiqarish va tatbiq qilishga xizmat qiladi.

Surunkali kasalliklarning kasbiy yuki sifatida esa bel og'rig'i(37foiz), eshitish qobiliyatining pasayishi (16foiz) o'pka zararlanishi bilan bog'liq kasalliklar(13foiz) , astma(11foiz) va saraton(9foiz) ko'rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, hozirgi kunda ham kasb kasalligi muammo bo'lib kelmoqda. Shu kasalliklar tufayli ishchi kuchi yetishmovchiligi vujudga keladi, albatta. Buni oldini olish uchun chora tadbirlarni ko'risgimiz darkor.

1.Ish joyida himoya vositalaridan foydalanish, ya'ni niqob, qo'lqop, quloqchin kabilardan foydalanishimiz lozim.

2.Har kuni ish joyini muntazam ravishda dizenfeksiya qilishimiz va xavfsizlik qoidalariga, albatta, rioya qilishimiz zarur.

3.Ish vaqtida tanaffus qilish, ya'ni dam olish va ergonomik mehnat sharoitlarini yaratishimiz kerak.

4.O'z vaqtida davriy tibbiy ko'riklardan o'tishimiz darkor.

5.Zararli omillar ta'sirini kamaytirishimi lozim yoki butunlay yo'qotishimiz kerak.

**Xulosa va takliflar.** Mening fikrimcha, mehnat muhofazasida texnika xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak: o'quv-mashqlar, risklarni tahlil qilish, texnik jihozlar xavfsizligini nazorat qilish, shaxsiy himoya vositalarini taqdim etish, mehnat sharoitlarini doimiy ravishda baholash, avariyaaviy vaziyatlar uchun rejalar tuzish va xavfsizlik standartlariga rioya qilishni nazorat qilish. Shu orqali kasb kasalliklarini oldini olish ehtimolimiz mavjud. Mening fikrimcha, kasb kasalliklarini oldini olish va mehnat muhofazasida texnika xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

1.O'quv-mashqlar

2.Risklarni tahlil qilish,

3.Texnik jihozlar xavfsizligini nazorat qilish,

4.Shaxsiy himoya vositalarini taqdim etish,

5.Mehnat sharoitlarini doimiy ravishda baholash,

6.Avariyaaviy vaziyatlar uchun rejalar tuzish

7.Xavfsizlik standartlariga rioya qilishni nazorat qilish.

Shu tadbirlar orqali kasb kasalliklarini oldini olish ehtimolimiz mavjud. Biz bu chora tadbirlarni o'tkazmasak kasb kasalliklari ko'payadi. Natijada, ishchi kuchi kamayadi. Yuqorida aytganimdek, birgina xodim emas, nafaqat oila a'zolari ham psixologik aziyat chekishadi. Biz shularning oldini olish uchun xavfsizlik chora tadbirlarni o'tkazishimiz lozim, deb o'ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'R.Yo'ldoshev; O.D.Rahimov; R.T.Xo'jaqulov; O.T.Hasanova;  
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. -T: "Davr nashriyoti" MCHJ. 213.200bet.